

**Pirimqul Qodirovning "Ona lochin vidosi" asarida uchraydigan  
lingvokulturologik birliklar**

***Qaxarova Iroda Eshqobil qizi***

*Temiz davlat universiteti O'zbek filologiyasi fakulteti*

*Amaliy filologiya yo'nalishi talabasi*

[irodaqahorova71@gmail.com](mailto:irodaqahorova71@gmail.com)

**Key words:** *paremiologik birlik, metofora, frazeologizm, o'xshatish, aforizm sitata, uvroq, qaqnus, lingvokulturologik birlik.*

**ANNOTATSIYA:** *Ushbumaqolada "Ona lochin vidosi asarida" uchraydigan lingvokulturalogik birliklar (o'xshatish, metofora, jonlantirish, paremiologik birliklar, frazema) ning lingvomadaniy malumotlarni to'plash va uzatishdagi o'rni qiyosiy tahlil orqali yoritiladi.*

**ANNOTATION:** *In this article, the role of linguistic and cultural units (simile, metaphor, revitalization, paremiological units, phrase) found in "Mother's falcon video" in the collection and transmission of linguistic and cultural information is highlighted through comparative analysis.*

Til va madaniyatning bog'liqligi haqida olimlar turli yo'nalishlarda yozishmoqdalar haqiqatdan ham til va inson jamiyatni tashkil qilsa, madaniyat esa aynan tilda namoyan bo'ladi. Pirimqul Qodirov ko'pdan-ko'p tarixiy manbalarni o'rganib "Ona lochin vidosi" asarida Gavharshodbegim siymosini go'zal badiiy bo'yoqlarda tasvirlaydi. Tarifi keltirilgan Gavharshodbegim aslida baxtsizliklarning sababchisi emas, balki toj-u taxt kurashlarining qurboni ekanligi aks ettiriladi. Qahramon bejiz ona lochin deb atalmagan, u Temuriylar saltanatida yorqin iz qoldirgan ma'naviy dunyosi boy, aql-zakovatda tengsiz ayollardan biri bo'lganligini anglab yetamiz. Zarur chog'larda qattiqqo'l, lekin mehribon Gavharshodbegim shahzodalarni tarbiyalash, navqiron iste'dodlarni kashf etish, ularni mehr -muruvvat bilan onalarcha parvarishlash singari fazilatlar yorqin

gavdalanadi. Asarda qo'llanilgan lingvokulturologik birliklar metofora, ko'chim, frazeologizm, paremiologik birlik, aforizmlar o'sha davr muhitini yanada reallashtiradi, uning mohiyati va qiymatini ochib beradi.

1. Bog'i Safed[4] -Shoxruh Mizro suyukli malikasi Gavharshodbegimga atab Hirotning ko'rkam joyiga oq marmardan uch oshiyonli qilib qurdirgan qasri ikkinchi nomi Oydinbog' edi.

2. Alouddin Tabriz[11]-Sohibqiron bilan shaxmat o'naydigan, qiziq-qiziq hangomalardan aytib kuldiradigan shaxs.

3. Lochindek yuksakka parvoz etadigan avlodlarim[25]-doimo g'alabaga erishish, yuksalish ma'nosida qo'llangan o'xshatish.

4. Olovli yoshlik[30]-metofora, bolalik, o'spirinlik, eng ajoyib davri nazarda tutiladi.

5. Ulug' o'g'lim, tong'ich o'g'lim, suyangan tog'imsiz[36]-metofora, kimgadir qattiq ishonish unga suyanish ma'nosida.

6. Olimlik dardi[50]-metofora, bilimdonlikka chuqur etibor qaratish.

7. Ikki tarvuz bir qo'litiqqa sig'magay[51]-frazologizm, bir vaqtning o'zida ko'p ishni uddalay olmaslik.

8. Kurashda adovat emas, adolat yengadir[57]-aforizm, dushmanlik, o'zaro yovlashish hech qachon yenga olmasligi ma'nosida.

9. Pichoq borib suyakka qadalmoq[62]-frazologizm, ahvoli chidab bo'lmas darajaga yetmoq.

10. Musofir bo'lmaguncha musulmon bo'lmassen[70]-paremiologik birlik bor narsani vaqtida qadriga yetish ma'nosida.

11. Uyat o'limdan qattiq[77]-paremiologik birlik, buso'z qadimgi turkiy tilda uyat, andisha, nomusli ma'nosida qo'llangan.

12. Bir oyog'i yerda, bir oyog'i go'rda bo'lmoq[180]- frazeologizm, qari, keksa, mo'ysafid, yoshi ulug' ma'nosida.

13. Pok bir olov[89]-metofora, aqlli, zehnli, iste'dodli ma'nosida.

14. Yulduz bo'lib porlamoq[99]-tashbeh, Nomi barcha joyga yetib bormoq, mashhur bo'lmoq.

15. Egilgan boshni qilich kesmas[100]- paremiologik birlik, ezgulik ma'nosida

kelishib olmoq.

16. Yaxshilikni eng avvalo onangga qil, onangga, onangga[101]-aforizm , onalarni ulug'lash , ezozlash haqida.

17. Uvroq[106]-oila a'zolari, yani ayollar nazarda tutiladi.

18. Davlat ishlarini o'ndan to'qqizi aql-zakovat, tadbir-u mashvarat bilan bajo keltirilgay, faqat o'ndan bir qismini qilich bilan bitirsa bo'lgay[110]-aforizm.

19. Qonli qilichlarni sindiradigan eng zo'r kuch-haqiqatdir[117]-aforizm.

20. Aytilgan gap-otilgan o'q[129]-paremiologik birlik aytilgan gapni qaytarib ololmaslik ma'nosida.

21. Tilini tiymoq[202]-frazologizm , o'rinsiz gapimaslik , sukunat qilish.

22. Hayotdan qaytgan qasos[224]-metoforik aforizm, yomon , nomaqbul qilgan ishi uchun javob berish.

23. Oltin olma, duo ol[231]- paremiologik birlik, yoshi ulug' insonlarni duosini olish.

24. Qo'l bermoq[139]-frazologizm, kelishib olmoq , sulh tuzmoq.

25. Sabr kosasi to'lib toshmoq[245]- frazeologizm , ortiq kutish , yoki chidashga toqati qolmaslik.

26. Orzu qilgan guli ochilmoq[246]-ko'chim, ko'zlagan maqsadiga erishmoq, orzulari ijobat bo'lmoq.

27. Ko'ngliga tugmoq[247]-frazologizm, kimdandir xafa bo'lish va bu haqida hech kimga bildirmaslik.

28. Samimiyat ipiga o'ramoq[249]-metofora. jonkuyarlik, mehribonlik, mayinlik bilan gapirmoq.

29. Tariqday sochilib ketgan ziyoli odamlar[251]-o'xshatish, ilmi toliblarning har joyga tarqalib ketishi.

30. Oyni etak bilan yopib bo'lmas[255]-paremiologik birlik, haqiqat baribir oshkor bo'lishi ma'nosida.

31. Ko'z tikmoq[258]-frazologik birlik, kutmoq.

Asar 26 bobdan iborat bo'lib, uning oxirgi "Qaqnus bo'lib kelgan lochinlar" bobini to'liqligicha lingvokulturologik hodisa sifatida olishimiz mumkin.

Qadimgi sharq afsonalarida aytilishicha Qaqnus degan ulug'vor qush urush olovlarini o'chirish uchun alanga ichiga otilib kirar ekan. Olov o'chgandan so'ng kul ichidan qanotini rostlab chiqar va shunday ajoyib tovush bilan sayrar ekanki, uning kuylari o'lim uyquasi ichida yotgan mavjudotlarni qayta tiriltirib uyg'otib yuborar ekan. Mumtoz kitoblarning guvohlik berishicha, Qaqnusning ovoz pardalaridan uch yuz oltmish xil eng go'zal va sehrlil ohanglar taralar ekan, butun borliqqa, san'at va nafosat olamiga, ilm-u fanga hayotbaxsh ta'sir ko'rsatar ekan. Alisher Navoiy ham do'sti Husayn Boyqaro bilan birga yonib turgan urush olovi ichiga fidoiylarcha otilib kirib, uni o'chirdilar. Shundan keyingi o'n yilliklarda Alisher Navoiy dahosi xuddi Qaqnusning borliqni uyg'otuvchi afsonaviy qudrati singari adabiyot va san'at, ilm-u fanda, bunyodkorlik ishlarini qayta jonlantirib, yangi cho'qqilarga ko'targanligini yozuvchi takitlaydi.

Xulosa o'rnida shuni takidlash joizki, mamlakat, tabiat, xalq, uning tarixi urf-odatlarini, an'analarini aks ettiruvchi asarlarda qo'llangan lingvokulturologik birliklar badiiy nasrning fonidir. Bu birliklar insonning umuman olganda xalqning ko'p asrlik qarashlarini, faoliyatni dunyoqarashini, yoritadi. To'g'ri turli tillar birliklarida umumiy jihatlar ko'p ammo lingvokulturalogik birliklar umuminsoniy tushunchalarni va olamga bo'lgan munosabatni aks ettiradi.

### **Adabiyotlar:**

1. Арутюнова Н.Д. Язык и мир человека. Языки русской культуры. М.: 1999:
2. Аскольдов-Алексеев С.А. Концепт и слово. Русская словесность. От теории словесности к структуре текста. М.: Academia, 1997.
3. Ашурова Д.У. Перспективы научных исследований в свете новых направлений лингвистики. Филология масалалари. Тошкент: 2004, 4-сон.
4. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. - М.: 1969.
5. Бенвенист Э. Общая лингвистика. Перевод с франц. языка. М.: Прогресс, 1974.
6. Большой Энциклопедический словарь. М.: 1998.
7. Брутян Г.А. Гипотеза Сепира-Уорфа. - Ереван: 1968.
8. Mamatov A.E. Zamonaviy linvistika: o'quv qo'llanma/N.: 2019. 168 bet.

9. P. Qodirov, "Ona lochin vidosi " : Yoshlar matbuoti. : 2023.
10. Вежбицкая А.: Язык, культура, познание. - М.: Русские словари, 1996.
11. Вежбицкая А. Сопоставление культур через посредство лексики и прагматики. - М.: Языки славянской культуры, 2001
12. Верещагин Е.М., Костомаров В.Г. Дом бытия языка. В поисках путей развития лингвострановедения. Концепция лингвоэпистемы. М.: 2000.
13. Верещагин Е.М., Костомаров В.Г. Язык и культура: лингвострановедение в преподавании русского языка как иностранного. - М.: 1990.
14. Верещагин Е.М., Костомаров В.Г. Лингвострано-ведческая теория слова. - М.: 1980.
15. Воробьев В.В., Саяхова Л.Г. Языковая личность. Лингвокультурология. Лингводидактика. Лексикография. Уфа: 2001.